**SHARTNOMA № 178**

20-yanvar 2022-yil Yangiqo'rg'on qishlog'i

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodolovchi mazkur nizom asosida ish yurituvchi Farg'ona "Suv ta'minoti" MCHJ Buvayda tuman bo'limi (keyingi o'rinlarda Korxona deb ataladi) nomidan raxbar S.Dexqonov birinchi tomon va ikkinchi tomon O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Buvayda tuman irrigatsiya bo'limi nomidan rahbar Yo.Nazarov (kelgusida Mijoz deb ataladi)

**I. Shartnoma predmeti**

1.1 Korxona suv tarmog'ida diametri 20 mm bo'lgan yer osti o'tkazish joyi orqali mijozga ichimlik suvi yetkazib beradi. Mijoz yiliga 97 m3 ichimlik suvi qabul qiladi. 1m3 ichimlik suvi narxi 1545 (1.2 va 1.3 bandlargaasosan) so'm, ushbu shartnomaning umumiy summasi 149865 (bir yuz qirq to'qqiz ming sakkiz yuz oltmish besh) so'm etib belgilandi.

1.2 Ichimlik suvining 1 $m^3$ istemol narxi 1300 so'm 00 tiyinni tashkil etib, 15% qo'shilgan qiymat solig'i bilan jami 195 so'm 00 tiyin.

1.3 Viloyat xokimining 2019 yil 17 apreldagi 144-sonli qaroriga asosan 50 so'm ustama qo'shilgan.

**II. Xisob-kitob shartlari**

2.1«Korxona» tomonidan xizmatlar ko'rsatilgandan so'ng, o'zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan ko'rsatilgan xizmatlar uchun «Mijoz» pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi. "Mijoz" oldindan 100% avans to'lovini amalga oshiradi, xamda to'liq xisob-kitob 60-kun ichida amalga oshiriladi.

**III. Tomonlar huquq va majburiyatlari**

3.1 Tomonlar amaldagi O'zbekiston Respublikasining sohaga doir qonunlari hamda ichimlik suvi ta'minoti va oqova tarmoqlaridan foydalanish to'g'risida me'yoriy xujjatlariga og'ishmay amal qilish majburiyatini oladi.

**3.1 Korxona quydagi huquq va majburiyatlarga ega**

3.1.1 Mijozga Ushbu shartnomada belgilangan xajmda yiliga 97 kub.m miqdorida suv yetkazib berish;
3.1.2 Mijozdan yiliga 0 kub.m suv miqdoridagi oqova suvlarini qabul qilish;
3.1.3 Mijozdan korxona oqova suv tarmog'iga kelib tushayotgan chiqindi suvlarning ifloslanish darajasini muntazam tekshirib borish;
3.1.4 Ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlarini va suv o'lchagich asboblarini texnik xolatini muntazam ravishda nazorat qilib borish;
3.1.5 Tarmoqdagi ichimlik suvi sifati monitoringini olib borish;
3.1.6 Ichimlik suvi va oqovalarining belgilangan me'yor (limit) dan ortib ketgan holda korxona belgilangan tariflarga nisbatan orttiriluvchi koefitsentni qo'llash;
3.1.7 Mijoz ikki xafta ichida belgilangan to'lovni amalga oshiraolmasa, korxona mijoz tarmog'ini ogoxlantirishsiz uzib quyish huquqiga ega.
3.1.8 Avariya holatlari yuzaga kelganda o'z vaqtida bartaraf etish;

**3.2 Mijoz quydagi huquq va majburiyatlarga ega:**

3.2.1 . PF-1154-sonli Farmoni 1-bandiga asosan Mijoz oldindan 100% to'lov amalga oshirilgandan so'ng ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlariga xizmat ko'rsatadi. Kalendar oyi tugagandan keyin 30 kun mobaynida **149865** so'm to'lovni to'liq amalga oshirishni;

3.3 Mijoz suv xisoblagich asboblarini o'rnatmasdan komunal suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish tizimiga ulanmaslikni;

3.4 Ichimlik suv sarfining belgilangan limitlar va rejimiga rioya qilish, suv o'lchagich asbobiga ega bo'lishi, oqova suvni xisobini oladigan suv o'lchami tarmog'iga ega bo'lishi, suv xisobini qayd etuvchi asbob va qurilmalarinig soz holda saqlanishini tahminlash, ulardagi plombalarni sababsiz buzmaslik, suv xisoblagich nosoz xolati aniqlansa, plomba shikast yetganligi, uzulgan yoki butun emasligi kabi xolatlarni aniqlaganda 2 sutka mobaynida korxonani bu haqida ogoxlantirishi; suv o'lchagich asbobini ikki yilda bir marotaba texnik ko'rikdan o'tkazish, oqova suvlarini kanalizatsiya tarmog'iga tashlash, belgilangan ifloslanish limitlariga, rejimiga rioya qilish;

3.5 Oqova suvlarini kanalizatsiya tarmog'iga tashlash beligilangan tartibda qurilgan oqova suvi qudug'i yoki korxona tashqarisida nazorat qudug'iga o'rnatilsagina amalga oshirish;

3.6 Ushbu shartnoma bajarilishini tekshirish uchun korxona vakillarining mijoz xo'jaligiga xizmat guvoxnomasini ko'rsatgan holda xech qanday to'siqsiz kirishini tahminlash;

3.7 Mijozning nomi, bankdagi xisob-raqami o'zgarishi, faoliyatini to'xtatilganligi kabi xususiyatlari o'zgargan takdirda 5 kun muddat ichida korxonaga yozma mahlumot berishi;
3.8 Suv o'lchagich asboblaridagi nosozliklar aniqlanganda aloqa vositalari orqali yoki bevosita korxonaga xabar berish;
3.9 Suv sarfi va oqova suvlar oqizilishining shartnomada belgilangan xajmlardan (limit) oshirishga yo'l qo'ymaslik.

## IV. Maxsus shartlar

4.1 Mijoz quydagi xujjatlarga ega bo'lishi zarur:
4.2 Ulanish uchun zarur bo'lgan loyixa (texnik) xujjati, suv ta'minoti va kanalizatsiya sxemalari;
4.3 Loyiha tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan, iste'mol qilinadigan va tashlanadigan oqova suvlarining miqdori, sifati tarkibini me'yoriy asoslovchi xisob xujjati, shuningdek komunal-ekologik normativlar;
4.4 Shartnoma taraflarning birining yozma ravishdagi arizasiga binoan amaldagi qonun xujjatlariga asosan to'xtatilishi, tugatilishi yoki bekor qilinishi mumkin.
4.5 Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taraflarni o'zaro yozma ravishdagi kelishuviga asosan amalga oshiriladi.
4.6 Tariflar o'zgarganda korxona mijozni ogoxlantiradi va matbuotda e'lon qiladi.

## V. Xisobga olish tartibi

5.1 Sarflangan suv miqdorini xisobga olish suv o'lchagich asboblarining ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.
5.2 Xisoblagich moslama belgilangan vaqtda o'rnatilmagan taqdirda sarflangan suv miqdori quvurning 1 sutka davomida to'la quvvat bilan ishlashi bo'yicha aniqlanadi.
5.3 Mijoz o'zidagi suv o'lchagichning nosozligini aniqlagan va korxonaga bu haqida mahlum qilmasa, sarflangan suv miqdori o'tgan 3 oy davomida sarflangan suvning o'rta miqdoriga qarab aniqlanadi.

## VI. Taraflarning javobgarligi

6.1 «Korxona» xizmat ko'rsatish muddatlarini kechiktirganda, shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini lozim darajada bajarmagan xollarda «Mijoz»ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5% miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.
6.2 «Mijoz» ko'rsatilgan xizmatlar haqqini o'z vaqtida to'lamaganligi uchun (xizmat ko'rsatuvchiga) ish bajaruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.
6.3 Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ko'rsatilmagan xizmatlar (Ishlarni bajarish) muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

## VII. Fors-major xolatlari

7.1 Shartnoma bo'yicha taraflar o'rtasida paydo bo'ladigan barcha nizolar kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan, xal qilib bo'lmasa nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik «Iste'molchi» davlat ro'yxatidan o'tgan sud organlarida ko'rib chiqiladi.
7.2 Tabiiy ofatlar, urush va ommaviy tartibsizliklar sababli shartnoma shartlari bajarilmasa tomonlar mulkiy javobgarlikdan ozod etiladi.

## VIII. Shartnoma amal qilish muddati

8.1 Shartnomaning amal qilish muddati 2022-yil 31-dekabrgacha.
8.2 Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro kelishuviga binoan muzokaralar yo'li bilan yoki amaldagi qonunlarga asosan sud tomonidan hal qilinadi.
8.3 Shartnoma ikki nusxada tuzilib birinchi nusxasi korxonada, ikkinchi nusxasi mijozda saqlanadi va ikkalasi ham bir hil huquqga ega.
8.4 Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib g'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

| «TA'MINOTCHI» | « ISTE'MOLCHI » |
| --- | --- |
| **«Farg'ona suv ta'minoti» M.Ch.J Buvayda tumani bo'limi** | **BUVAYDA TUMAN IRRIGATSIYA BO'LIMI** |
| Manzil: Buvayda tumani Yangiqo'rg'on qishlog'i | Manzil: Buvayda tumani Yangiqo'rg'on qishlog'i |
| Tel:____________________ | Tel:____________________ |
| Xisob raqam: 22638000900194935454 | Xisob raqam: 23402000300100001010 |
| INN: 200144908 | INN: 305081008 |
| MFO: 00544 | Shxv: 100022860302127042402170001 |
| Bank: Ipoteka bank Farg'ona viloyati filiali | MFO: 00014 |
| | Bank: Markaziy bank Toshkent sh. |
| Rahbar ______ S.Dexqonov | Rahbar ______ Nazarov |

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: RJ01525836

Buvayda tumani irrigatsiya bo'limi bilan Fargona «Suvtag'minoti» MCHJ Buvayda tuman bo'limi urtasidagi 2022-yil 20-yanvarda tuzilgan 178-sonli shartnomaga ilova.

| № | Oylar | 2022 yil uchun ajratilgan mablag Jumladan | |
|---|---|---|---|
| | | m3 | Summasi |
| 1 | Yanvar | 32 | 49440 |
| 2 | Fevral | 32 | 49440 |
| 3 | Mart | 33. | 50985 |
| 4 | Aprel | | |
| 5 | May | | |
| 6 | Iyun | | |
| 7 | Iyul | | |
| 8 | Avgust | | |
| 9 | Sentyabr | | |
| 10 | Oktyabr | | |
| 11 | Noya | | |
| 12 | Deka | | |
| | Jam | 97 | 149865 |

o'qqiz ming sakkiz yuz oltmish besh) so'm

(Summa suz bilan)

«TA'MINOTCHI»

**«Farg'ona suv ta'minoti» M.Ch.J Buvayda tumani bo'limi**

Manzil: Buvayda tumani Yangiqo'rg'on qishlog'i

Tel:______________________________

Xisob raqam: 22638000900194935454

INN: 200144908

MFO: 00544

Bank: Ipoteka bank Farg'ona viloyati filiali

Rahbar ____________ S.Dexqonov

« ISTE'MOLCHI »

**BUVAYDA TUMAN IRRIGATSIYA BO'LIMI**

Manzil: Buvayda tumani Yangiqo'rg'on qishlog'i

Tel:______________________________

Xisob raqam: 23402000300100001010

INN: 305081008

Shxv: 100022860302127042402170001

MFO: 00014

Bank: Markaziy bank Toshkent sh.

Rahbar ____________ Yo.Nazarov

.'рон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: KW6253601760

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi va soni

**Shartnoma № 178-son**

2. Loyihaning nomi

**Iste'molchilarga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

**Buvayda tuman irrigatsiya bo'limi tomonidan 20.01.2022**

Buvayda tumani irrigatsiya bo'limi bundan buyon matnda **"Buyurtmachi"** deb yuritiluvchi nomidan boshlig'i Y.Nazarov, bir tomondan va «**Farg'ona suv ta'minoti**» **M.Ch.J Buvayda tumani bo'limi** nomidan (keyingi o'rinlarda «Ta'minotchi» deb yuritiladi) nizom asosida faoliyat yurituvchi Dexqonov Salimjon Erkinovich shaxsida, ikkinchi tomondan o'z nizomlari asosida, Buvayda tumani irrigatsiya bo'limiga ichimlik suvi yetkazish yetkazib berish bo'yicha 1 m3 1545 so'mdan jami 97 m3 suv uchun umumiy qiymati 149865 (bir yuz qirq to'qqiz ming sakkiz yuz oltmish besh) so'mlik **Iste'molchilarga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini** tuzmoqdalar.

Ushbu shartnoma loyihasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonun va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

2022-yil 21-yanvar

**Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti** **S.Axmadaliyev**